

Til bilgan el bilar

2019 yil 28 mart kuni TIQXMMI 2-ma'ruzalar zalida "Tillar" kafedrasida professor-o'qituvchilari E.Yusupov, U.Tasheva, I.Allenova hamda "SXTE va B" fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyevlar hamkorligida institutning "SXTE va B" va "QXM" fakultetlari talabalari uchun taklif etilgan Moskva Davlat pedagogika instituti professori Yanchenko Vladislav Dmitriyevich ishtirokida "Rus tilini o'rganishning zamonaviy usullari" mavzusida ma'ruza va mahorat darsi o'tkazildi.

Tadbirda talabalarimizni rus tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari o'tkazilgan savol-javoblar va interaktiv o'yinlarda namoyon bo'ldi. Bugungi kunda yoshlar orasida rus tilini o'rganish va unga qiziqish yuqori bo'layotganligi ko'rishimiz mumkin. Ma'ruza qizg'in savol-javoblar asosida o'tdi.



"SXTE va B" fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov